

**“TASDIQLAYMAN”
Toshkent davlat yuridik
universiteti rektori v.v.b.**

_____ **I. Rustambekov**

2023-yil “__”-iyun

Ixtisoslikni tanlashda motivatsiya (huquqshunos kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish bildirish)	
T/r	Savollar
Davlat va huquq nazariyasi	
1.	Huquqiy munosabatlar tushunchasiga ta’rif bering va ularga misollar keltiring.
2.	Huquqiy munosabatlar asosida yuzaga keladigan subyektiv huquq va yuridik majburiyat tushunchalariga ta’rif bering va amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
3.	Huquqbuzarlik subyektiv tomonining zaruriy belgisini va uning tarkibiy elementlarini tushuntirib bering.
4.	Faol huquqiy xulq-atvor nima? Amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
5.	Nojo‘ya ish ko‘rinishidagi huquqbuzarlik qaysi turdagi huquqbuzarliklarni qamrab oladi. Ularning har biri haqida batafsil ma’lumot bering.
6.	Huquqbuzarlik tushunchasiga ta’rif bering va uning asosiy belgilari haqida fikr yuriting.
7.	Huquqiy munosabat subyektlari elementlarini batafsil yoritib bering.

8.	Huquq tizimi va qonunchilik tizimi tushunchalarini tahlil qilish orqali ularning farqli jihatlarini tushuntirib bering.
9.	Moddiy huquq va protsessual huquqning o‘zaro nisbatini yoritib bering.
10.	Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishning bir turi bo‘lgan inkorparatsiya haqida ma’lumot bering va uning tizimlashtirishning boshqa turlaridan farqli jihatlarini aytib bering.
11.	Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquqning o‘zaro farqi jihatlarini tahlil eting.
12.	Jinoyat tarkibi elementlari va ularning belgilarini tahlil eting.
13.	Doktrinal sharhlash deganda nima tushuniladi?
14.	Huquqiy normani tizimli (sistemali) sharhlash usuli deganda nima tushuniladi?
15.	Norasmiy sharhlash deganda nima tushuniladi?
16.	Huquq normalarini sharhlash deganda nima tushuniladi?
17.	Huquqiy ongning subyektlariga ko‘ra tasnifidagi ijtimoiy huquqiy ong deganda nima tushuniladi?
18.	Huquqiy modellashtirish funksiyasi deganda nima tushuniladi?
19.	Huquqiy davlat deganda nima tushuniladi?
20.	Huquq tizimi deganda nima tushuniladi?
21.	Huquqiy odat – huquqning qadimgi manbasi sifatida, uning nazariy va huquqiy jihatlarini yoritib bering.
22.	Huquq manbalaridan biri bo‘lgan, huquqiy pretsedentning nazariy tushunchasini amaliy misollar orqali tahlil qiling.
23.	Normativ-huquqiy hujjat – huquqning manbasi sifatida uning tushunchasini tahlil qilgan holda, boshqa huquq manbalaridan farqli xususiyatlarini sanab bering.
24.	Normativ va xalqaro shartnomalarning nazariy jihatlarini batafsil tahlil qiling.
25.	Normativ-huquqiy hujjatlar vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilish doirasiga ega bo‘ladi. Har biriga to‘xtalib, amaliy misollar orqali tahlil qiling.

26.	Islom huquqining asosiy manbalarini tahlil qilgan holda huquq manbalari tizimidagi o‘rniga huquqiy baho bering.
27.	Xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikda implementatsiya qilish masalalarini batafsil tahlil qiling.
28.	Ijtimoiy ongning turi sifatida huquqiy ong tushunchasiga ta’rif bering. Insonlar huquqiy ongini shakllantirishda huquqiy tarbiya vositalaridan biri sifatida huquqiy targ‘ibot tushunchasini yoritib o‘ting.
29.	Yuridik adabiyotlarda berilishicha, huquqiy ong tarkibiy jihatdan ikkita elementdan iborat. Ushbu elementlar, ya’ni huquqiy ruhiyat(psixologiya) va huquqiy mafkura(ideologiya) tushunchalarini tahlil qiling.
30.	Jamiyatda o‘sib kelayotgan yosh avlodni huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Huquqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
31.	Sanksiya nima uning turlarini ochib bering.
32.	Huquq normasi nima va uning belgilarini tushuntirib bering.
33.	Huquqiy ong saviyasiga, ya’ni darajasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
34.	Dispozitsiya nima, unga ta’rif bering.
35.	Moddiy huquq bilan protsessual huquqning farqli jihatlarini muhokama qiling, misollar keltiring.
36.	Huquq layoqati va muomala layoqatining farqli jihatlarini tushuntirib bering.
37.	Huquq normalariga rioya qilish va huquq normalarini bajarish tushunchalariga ta’rif bering.
38.	Huquqdagi bo‘shliq tushunchasiga ta’rif bering va uni bartaraf etish yo‘llarini ayting
39.	Rasmiy va norasmiy sharhlashning o‘ziga xos tomonlarini muhokama qiling.
40.	Huquqbuzarlikning belgilarini ochib bering.
41.	Davlatning asosiy va qo‘shimcha (yordamchi) belgilarini ajratib ko‘rsating va ular asosida davlat tushunchasining umumiy tavsifini bering.
42.	Dispozitsiya tushunchasi, turlari va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering. Turlari bo‘yicha qonunchilikdan misollar keltiring.

43.	Ijtimoiy normalar va huquq o'rtasidagi o'zaro farqli va o'xshash jihatlarni tahlil eting.
44.	Ijtimoiy munosabatlar tushunchasi va ularni normativ tartibga solishning obyektiv zaruriyatini tushuntiring.
45.	Unitar, federativ va konfederativ davlat shakllari o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling va amaliy misollar asosida tavsiflang.
46.	Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning turlarini yuridik kuchi jihatidan muhokama qiling.
47.	Qonun ijodkorligi jarayonining tushunchasi, prinsiplari va bosqichlarini tahlil qiling.
48.	Qonunchilikdagi kolliziyalar; tushunchasi, sabablari va bartaraf etish yo'llarini muhokama qiling.
49.	Davlat boshqaruvining shakli sifatida monarxiyaning o'ziga xos xususiyatlari va turlarini tahlil qiling hamda misollar keltiring.
50.	Norasmiy sharhlashning turlarini tushuntirib bering va fikringizni misollar bilan asoslang.